

TILSHUNOSLIKDA “VAQT” TUSHUNCHASI VA UNING “BADIY VAQT” ATAMASI TARKIB TOPISHIDAGI AHAMIYATI

*S. Aliqulova*¹

Annotatsiya:

Vaqt tushunchasi hayotning har bir jabhasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning in'ikosi bo'lgan tilshunoslikda o'rni beqiyosdir. Ushbu maqola lingvistikada vaqt tushunchasining paydo bo'lish tarixi va bu tushunchaning badiiy vaqt atamasi yuzaga kelishidagi ahamiyati borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaratilgan bo'lib, badiiy asarlarda vaqt tushunchasi tutgan muhim o'ringa e'tiborni qaratadi.

Kalit so'zlar: vaqt, badiiy vaqt, kontinium, aporiyalar, zamon, absolyut va taksis vaqt, real va perseptual vaqt, siklik va liniyali vaqt, vaqtning matn kategoriyasi

doi: <https://doi.org/10.2024/htggyq02>

Vaqt tushunchasi antik davrlardan bugungi kunga qadar turli sohalarida turlicha nazariya va qarashlarda ifodalanib kelmoqda .

Hozirga kelib, bu tushunchaga nisbatan falsafiy yondashuvdan tortib, matematik tahlillarni ham uchratish mumkin. Biz uchun uning lingvistik tahlili yanada qiziqroq . Bu borada antik davr olimlarining falsafiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Bu davr asarlari “vaqt” tushunchasi borasida ko'plab qarama-qarshi fikrlarga to'la bo'ldi.

P.E.Yegizaryan o'zining «Будущее время в античной философии и ранней науке о языке» maqolasida “vaqt” tushunchasini birinchi tadbiiq etgan faylasuflardan Eleyalik Zenon (er.av. 490-433 yy ,Qadimgi Yunoniston) ni ta'kidlaydi. Zenonning asarlari bizgacha yetib kelmagan bo'lsada, uning qarashlari asosan Aristotel yozmalarida o'z ifodasini topgan. Zenonning mashhur aporiyalarini Aristotel o'zining “Fizika: Axilles”, “Dixotomiya”, “O'q” («Стрела») va “Stadiy” [9] asarlarida keltirib o'tadi. Aporiyalar (o'ylab topilgan, mantiqan to'g'ri holatlar)ning har biri “makon” va “zamon” kontiniumlariga ega deyiladi. Kontinium (continium) esa, bu alohida-alohida bo'linmas qismlar – moment - lahzalar, ya'ni “hozir” deb atash mumkin bo'lgan qismlar yig'indisi deb tushuniladi.

Vaqtning zamonlarga bo'linish xususiyatlari ham antik davr faylasuflarining diqqat markazida bo'lgan. Aristotel o'zining “Fizika” asarida vaqtning ikki qism: allaqachon sodir bo'lgan va tugagan hamda sodir bo'ladigan va hali bo'lmagan ko'rinishlarga bo'ladi. Hozirgi zamon uning fikriga ko'ra, vaqtning bir qismi hisoblanmay, balki o'tmish va kelajakka ajratishda asosiy vositadir. Shunga ko'ra, Aristotel o'tmish va kelajak va ular orasidagi aloqalar mavjud emas, vaqt bu barcha qolgan aloqalarni o'z ichiga olgan “hozir” dan iborat deb ta'riflagan [9].

Ko'rinib turibdiki, vaqt tushunchasi qadimgi davr olimlari uchun ham zid qarashlarga to'la bo'lgan. Ammo bu qarama-qarshiliklar keyingi davrlar izlanuvchilari uchun ulkan zamin bo'lib qolgan.

¹ Aliqulova Sarvinoz Komiljon qizi, SamDCHTI 2-kurs magistranti

Yangi davr olimlarining fikrlariga nazar solishdan oldin bizga qiziq bo'lgan "vaqt" tushunchasi izohli lug'atlarda qanday ifodalanganligini ko'rib chiqsak.

A.Hojiyevning "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" da unga quyidagicha ta'rif beriladi: 1. Obyektiv borliqda mavjud bo'lgan zamonning asr, yil, soat, minut, sekundlar bilan o'lchanadigan bo'lagi, shu zamon bo'lagining o'lchovi yoki o'lchov tizimi: Quyosh vaqti bilan. Mahalliy vaqt bilan. 2.Fursat, zamon: Ko'p vaqt Toshkentda yashadi. 3.Kun, oy, yil va sh.k.larning belgisi payti: Qish vaqti edi. 4. Davr zamon: Tiklanish vaqti. 5.Falsafiy: Obyektiv borliqning materiyaning harakati bilan uzviy bog'langan holda uzluksiz va izchil davom etadigan yashash shakli,zamon.[3]

B.A.Plungyan muallifligidagi "Katta Rus ensiklopediyasi" da "vaqt" («время») so'zi tilshunoslikda grammatik kategoriya bo'lib, vaziyat sodir bo'lish vaqtida shu vaziyat sodir bo'layotganligiga munosabat bildirish (nutq momentiga) yoki boshqa bir vaziyatning bo'lib o'tish vaqtiga aytiladi deyiladi. Birinchi holatda absolyut (yoki ayni vaqt), ikkinchisida esa – taksis (yoki nisbiy) vaqt deyiladi. [6]

Vaqt va zamon tushunchalariga keltirilgan ta'riflarni Al Farobiy nomidagi Qozoq Milliy Universiteti ilmiy izlanuvchilari Ainakul B.Tumanova, Tatyana V.Pavlovna va Natalya Y.Zuyevalarning «Категория времени в современной науке: анализ и интерпретация» maqolasida ham ko'plab topish mumkin.

Mazkur maqolada A.M.Mostepanenkoning tabiiy fanlar doirasidagi qarashlari quyidagicha keltiriladi: "Olimlar 2 turdagi vaqtni ajratishadi: real vaqt va pertseptual (subyektiv) vaqt. Real vaqt tushunchasi – tashqi olamning obyektiv doirasiga kirib, real voqea va hodisalarning holat o'zgarish tartiblari bilan bog'liq. Perseptual vaqt esa tashqi olamning biror bir individ tomonidan qabul qilinib aks ettirishiga aytiladi. Va aynan perseptual vaqt bizning o'tmish, bugungi kun va kelajakka munosabatimizga bog'liq bo'ladi". A.M.Mostepanenko olib borgan izlanishlarga ko'ra perseptual vaqt reallikni aks ettirishiga qaramasdan, har doim u bilan mos kelavermaydi. [8]

Tilshunoslik doirasida vaqt tushunchasi antroposentrik, subyektiv tushuncha sifatida qaraladi, deyiladi maqolada. Chunki inson vaqtni o'zining his-tuyg'ulari prizmasidan o'tkazib anglaydi. "Vaqt"ning so'zlovchining olamga nisbatan qarashlariga mutanosibliigi haqidagi farazlar ilk bor B.L.Uorf, undan so'ng esa Yu.D.Apresyan va N.D.Arutyunovlarning ishlarida keltirib o'tilgan.

"Vaqt" tushunchasiga ta'riflarning murakkabligi, keng qamrovliligi olimlar tomonidan bu tushunchani taqdir, hayot, qalb, vatan, yo'l, mehnat va boshqa shunga o'xshash universal konseptlar qatorida tan olinishiga sabab bo'ldi. Bu tushuncha turli millat va tillarda turlicha konseptuallashadi.

Qadim o'tmishdan beri inson ongida vaqtning 2 ta asosiy – siklik va liniyali vaqt modellari mavjud. Siklik vaqt arxaik sivilizatsiyaga xos bo'lib, bunda vaqt ko'proq bir xil takrorlanuvchi tabiat hodisalariga asoslangan aylanma ko'rinishida tasavvur etiladi (Neofilologiya, 8-bet,2019).

Liniyali – to'g'ri chiziqli vaqt tizimi esa bosh va oxiriga ega bo'lmagan o'tmish va kelajakni bog'lab turuvchi hozirning "mavjudlik nuqtalari"ga bo'lingan to'g'ri chiziq ko'rinishida tasvirlanadi. Tilshunos olimlarning aytishlariga ko'ra, Olam til manzarasi (ОТМ – ЯКМ –языковая картина мира) doirasida siklik va liniyali vaqt bir-birini o'zaro to'ldiradi va shunga ko'ra siklik vaqt tushunchasi tilning leksik tizimida , liniyali vaqt esa – grammatik tizimda akslanadi.

Bu kabi ilmiy qarashlarga asoslanib T.V.Matveyeva, I.Ya.Chernuxinalar vaqtning matn kategoriyasi (текстовая категория времени) tushunchasi terminiga o'z ta'riflarini berishgan. Chernuxina bunday "vaqt"ni muallifning irod mahsuli deya ajratadi, ya'ni vaqt badiiy matnda aniqlashadi va "badiiy vaqt" nomini oladi. I.Ya.Chernuxinadan so'ng "badiiy

vaqt” tushunchasi A.A.Potebnya, D.S.Lixachyov, A.F.Papina, G.A.Zolotova, N.K.Onipenka, M.Yu.Sidorova, A.F.Nikolina, J.V.Jerebilo kabi tilshunos olimlar tomonidan o’rganildi va ta’riflar berildi [8]

Ularning ta’riflarini o’rganib chiqar ekanmiz, badiiy vaqt bu, yozuvchi asarlarida real,perseptual va individual vaqt turlarining o’zaro aralashuvidan foydalangan holda, o’zi asar ichida yaratgan vaqtiga nisbatan aytilishiga guvoh bo’lamiz.

Badiiy vaqt tushunchasi ustidagi izlanishlar uni quyidagicha tavsiflanishini ko’rsatadi:

1. Real ob’yektiv, siklik, sub’yektiv, irreal (A.F.Papina)
2. Taqvimli, voqeyi, perseptiv (G.A.Zolotova, N.K.Onipenka, M.Yu.Sidorova)
3. Konkret, abstrakt, keng qamrovli, shoirona, sayqallangan (I.Ya.Chernuxina)
4. Syujetli, fabulali, muallifli, personaj-qahramonlarning sub’yektiv vaqti (N.A.Nikolina)
5. Irreal (astral, interferral, sehrli, mifologik, ertaknamo, fantastic, fantasmagorik, ko’zgu ortidagi vaqt) (A.F.Papina)
6. Real va virtual (T.V.Jerebilo lug’atidan).

Ushbu tavsiflar A.B.Tumanova, T.V.Pavlova, N.Y.Zuyevalar “The category of time in modern science: analysis and interpretation” maqolasida keltirilgan bo’lib, ular orasidan I.Ya.Chernuxinaning fikri badiiy asar analiziga nisbatan badiiy qarashlar yuzasidan eng perspektiv ko’rinishda deb bayon qilinadi. Ular Chernuxina fikrining adolatli isboti sifatida, haqiqatdan ham yozuvchi yoki shoir biror mavzudagi badiiy to’qimani ochib berish va asarni yaratish jarayonida qandaydir konkret vaqt tanlab olishi, so’ng ijodiy hayolot erkinligida bu vaqtni abstraktlab yoki keng qamrovda tasavvur etib, o’z fikrlarini har qanday zamon o’quvchisiga yetkazishga yo’naltirishini aytib o’tishadi. Va albattaki, so’z san’atkorining ijodiy kontekstida vaqt tushunchasi ijodiy sayqallangan bo’ladi. [8]

Xulosa o’rnida aytish joizki, tilshunoslikda “vaqt” va “badiiy vaqt” tushunchalari o’zaro chambarchas bog’liq holda o’rganiladi. Asarlardagi badiiy vaqt – zamon tushunchasi ko’p holatlarda makon tushunchasidanda muhimroq o’rin tutadi. San’atkor ijod mahsuli ta’sir kuchining yanada orttirilganligi uning o’z asaridagi vaqtni naqadar mohirona tasvirlay olganiga ham bog’liq bo’ladi. Haqiqat va hayolot, o’tmish va kelajak, yoshlik va yetuklik , fasllar almashinuvi , samoviy olamlararo sayohatlar tasviri badiiy vaqt oralig’ida o’quvchi ongi va shuuriga yetib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- [1]. Boltakulova G.F. Turli tizimli tillarda vaqtni ifodalovchi paramiologik birliklar – Ilmiy axborotnoma, SamDU, 2023 y, 6-son, 43-47 b.
- [2]. Breus I.V. Linguistic means of expression of the time category in fantasy works (cognitive aspect) – Gertsen kutubxonasi, 2009 y, <http://lib.herzen.spb.ru>.
- [3]. Hojiyev A. Hozirgi o’zbek tili faol so’zlarining lug’ati – Toshkent, 2017 y.
- [4]. Mamatqulova X.A., Sadirova K.A. Vaqt tushunchasining semantic tuzilishi va uning ingliz va o’zbek frazeologiyasida aks ettirilishi – Science and innovation, 2022, №3, 160-162 b.
- [5]. Jo’rayev I.I. Aspektual-temporal semantikaning voqelanishi xususida – Xorijiy filologiya (ilmiy jurnal), 2017 y, №4, 77-82 b.
- [6]. Mavlonova N.A. On the comparative study of phraseology at the present stage – Central Asian Journal of Mathematical theory and Computer Sciences, 2021, №9, 4-8.

- [7]. Boltakulova G. *Temporality and its Peculiarities in the Structure of English Sentences //Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach.* – 2016. – С. 71.
- [8]. Farruxovna B. G. *Linguistic Methods in Sentence Analysis //Journal of Pedagogical Inventions and Practices.* – 2022. – Т. 13. – С. 54-56.
- [9]. Abdullayev A. *METHODOLOGICAL APPROACHES IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE //Академические исследования в современной науке.* – 2023. – Т. 2. – №. 26. – С. 5-8.
- [10]. Абдуллаев А. А. *Contents of linguopoetic analysis of artistic text //Международный журнал искусство слова.* – 2023. – Т. 6. – №. 5.
- [11]. Akhtamova F.U. *Phraseological expressions in the modern english language and their derivative features // Экономика и социум.* 2022. №3-2 (94).
- [12]. Safaraliyeva, D., & Axtamova, F. (2023). *The Peculiarities of Teaching Multisensory Style of Learning. Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics, 1(5), 93-95.*
- [13]. Khandamova, F., & Ibodulloeva, M. (2023). *The Linguistic Function of Spatial Deixis in English Texts. Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics, 1(4), 75-79.* <https://doi.org/10.1997/nh210640>
- [14]. Abdirakhimovna M. Z. et al. *The Importance of Using Games in Teaching English to Primary Classes.* – 2023.
- [15]. Ibodullayeva M. *Sodda gap tarkibida tobe komponentlarning sintaktik o'rnini aniqlash (ingliz tili misolida) //Science and Education.* – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 376-380.
- [16]. Мафтуна И. Х. *Teaching interactive ways of conducting research to the students of higher education // Международный журнал искусство слова.* – 2023. – Т. 6. – №. 1.
- [17]. Furkatovna S. Y. *Algorithm and peculiarities of types of assessment and their impact on students'academic achievements // Journal of Intellectual Property and Human Rights.* – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 81-84.
- [18]. Sodikova Y. *The impact of formative assessment strategy on increasing student motivation in english classes // Solution of social problems in management and economy.* – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 131-136.
- [19]. Xaydarovna X. Z. *Means of correlation among sentences as a complex syntactic whole //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development.* – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 440-443.
- [20]. Khamrayeva Z. *Complex syntactic whole: prose stanza // Международная конференция академических наук.* – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 83-86.
- [21]. Yuldasheva S. *Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher //International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET).* –2021. – 2021.
- [22]. Oktamovich E. Q., Tashkulovna Y. S. *Types of person-centered learning technologies and innovative forms, methods and tools // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.* – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 197-199.